

XORAZM VILOYATINING ETNOMADANIY MEROSI ASOSIDA ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Bekturdieva Shohina Qurbonboy qizi

Urganch davlat universiteti magistranti.

Бектурдиева Шохина Қурбонбой қизи — магистрант

Ургенчского государственного университета.

*Bekturdieva Shokhina Kurbonboy qizi — a master's student
at Urgench State University.*

Email addresses: shaxinabekturdiyeva@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-7841-2637>

Annotatsiya. Maqolada Xorazm viloyatining etnomadaniy merosi, uning tarkibiy qismlari va ushbu resurslar asosida etnoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Xorazm xalqining asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, an'analar, milliy hunarmandchiligi, raqs san'ati, gastronomik madaniyati va dehqonchilik tajribasi hududning o'ziga xos turistik salohiyati sifatida baholanadi. Shuningdek, "Lazgi", "Tuxum barrak", Xorazm nonlari, qovun sayli, kulolchilik maktablari kabi madaniy kodlarni turistik mahsulotga aylantirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, etnomadaniyat, etnoturizm, madaniy kod, milliy meros, Lazgi, gastronomik turizm, hunarmandchilik, turistik destinatsiya.

Kirish. Bugungi kunda jahon turizmida nafaqat tarixiy obidalar, balki xalqlarning an'anaviy turmush tarzi, milliy qadriyatlari va nomoddiy madaniy merosiga asoslangan etnoturizm yo'nalishi tobora rivojlanib bormoqda. "Etnografik turizm – turistlarning ma'lum bir etnik guruh madaniyatini, uning shakllanish bosqichlarini, etnogenezi va etnik guruhlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va rivojlantirish uchun sayohatidir"¹. Etnoturizm muayyan hudud aholisining tarixiy xotirasi, urf-odatlar, hunarmandchiligi, milliy taomlari va madaniy xususiyatlarini turistlarga namoyish etish orqali hududning turistik jozibadorligini oshiradi. M.B.Birjakov etnografik turizmni alohida millatlar va xalqlar bilan tanishishga, ularni madaniy va til almashish maqsadida o'rganishga qaratilgan madaniy turizmning kichik turi sifatida belgilaydi². N.V. Moraleva va Ye.Yu. Ledovskixlar etnoturizmni etnik o'ziga xosligi asosiy turistik diqqatga sazovor joy bo'lgan mahalliy aholi ishtirok etadigan turizm industriyasining bir qismi deb hisoblaydilar³.

¹ Ахмедов И.А. Этнографик туризм худуд сайёхлик жозибадорлигини ошириш омили сифатида.// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 4/2024, iyul-avgust (№ 00072)

² Биржаков М.Б. Введение в туризм / М.Б. Биржаков. – СПб.: Изд-во «Герда», 2007. – 192 с.

³ Моралева, Н.В. Организация этнографического и аборигенного туризма: учебное пособие – М.: Библиотека коренных народов Севера, 2008. – 43 с.

Xorazm viloyati O'zbekistonning qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri sifatida boy moddiy va nomoddiy madaniy merosga ega. Bu hududda shakllangan etnomadaniy qadriyatlar nafaqat mahalliy aholi identikligini belgilaydi, balki zamonaviy turizmni rivojlantirish uchun muhim resurs vazifasini bajaradi.

Asosiy qism. Xorazm aholisining etnomadaniy qiyofasi asrlar davomida shakllangan mehnat madaniyati, dehqonchilik an'analari, hunarmandchilik, san'at va milliy taomlar tizimi orqali namoyon bo'ladi. Hudud aholisining tabiiy sharoitga moslashgan hayot tarzi, ayniqsa Amudaryo bilan bog'liq sug'orma dehqonchilik madaniyati o'ziga xos etnomadaniy xususiyatlarni shakllantirgan⁴. Tarixiy manbalarda Xorazm aholisining mehnatsevarligi, yerdan unumli foydalanishi va yuqori hosil yetishtirish tajribasi alohida qayd etilgan. Xiva xonligi davrida bu yerda yetishtirilgan qovun, olma, anor, uzum va boshqa meva-sabzavotlar nafaqat mahalliy bozorlarda, balki xorijiy hududlarda ham mashhur bo'lgan⁵. Bugungi kunda ushbu an'analarni agroturizm va gastronomik turizm yo'nalishlarida rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Xorazmning muhim etnomadaniy belgilaridan biri - milliy raqs san'atidir. "Lazgi" raqsining YuNESKO Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilishi Xorazm madaniyatining xalqaro miqyosda tan olinishiga sabab bo'ldi⁶. "Lazgi" nafaqat san'at namunasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va ma'naviy dunyosini ifodalovchi madaniy kod sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, ushbu raqs asosida festivallar, master-klasslar va etnoturistik dasturlarni tashkil qilish turistik oqimni oshirishga xizmat qiladi⁷.

Xorazmning gastronomik merosi ham etnoturizmning muhim yo'nalishlaridan biridir. "Tuxum barak"⁸, Xorazm patirlari, qovun va anor mahsulotlari hududning o'ziga xos gastronomik brendi hisoblanadi. Milliy taomlar nafaqat ovqatlanish madaniyatini, balki xalqning tarixi, turmush tarzi va mehnat faoliyatini ham aks ettiradi. Shuning uchun milliy taomlarni tayyorlash jarayonini turistlarga ko'rsatish, gastronomik festivallar o'tkazish va mahalliy mahsulotlarni brendlash etnoturizm rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xorazmdagi hunarmandchilik an'analari ham katta turistik salohiyatga ega. Xivadagi Ichonqal'a hududida saqlanib kelayotgan kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, to'qimachilik va boshqa hunar turlari turistlar qiziqishini oshiradi. Xonqa tumanidagi

⁴ Шкапский О. Рассказ о Средней Азии. кн.1. М. 1900. – С. 5.

⁵ Гладышев и Муравьин. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740-1741 годах поручиком Гладышевым и геодезистом Муравьиным. СПб. 1851. – С.21

⁶ «Лазги» халқаро рақс фестивалини ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 28.09.2020 йилдаги ПҚ-4843-сон ақори// <https://lex.uz/uz/docs/5020216>

⁷ Bekmurod Ollanazarov and Nilufar Raimova. Xorazmda etno-folklor turizmini rivojlantirish: madaniy meros va barqaror taraqqiyot istiqbollari// GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 2025, vol. 3, issue 4

⁸ «Тухум барак» получил статус географического указания в Узбекистане// <https://www.spot.uz/ru/2025/06/14/tuxum-barak/> 14 июня 2025, 16:57 Экономика

Madir kulolchilik maktabi, Yangiariq tumanidagi Kattabog' qishlog'i kabi hududlarda milliy hunarmandchilik va mahalliy brendlarni rivojlantirish mumkin.

Etnoturizmni rivojlantirishda qishloq hududlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xiva tumanidagi G'ovuk qishlog'i anor yetishtirish an'analari bilan, Yangiariq tumanidagi Kattabog' qishlog'i esa anorchilik va kulolchilik madaniyati bilan ajralib turadi. Bunday hududlarda mehmon uylari, fermer xo'jaliklariga tashriflar, milliy taom tayyorlash jarayonlari va hunarmandchilik mashg'ulotlarini o'z ichiga olgan etnoturistik marshrutlar tashkil etish mumkin. Shuningdek, Xorazmda ziyorat turizmi uchun ham katta imkoniyatlar mavjud. Shayx Muxtor Vali (Ostona buva) ziyoratgohi, Qal'ajiq qal'a va Tuzli Eshon ko'li kabi ob'ektlar tarixiy va ma'naviy turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda YuNESKO doirasida Xorazmning madaniy kodlari va etnomadaniy merosini xalqaro miqyosda tanitish hududning turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon tarixiy yodgorliklar, nomoddiy madaniy meros namunalari, milliy san'at, hunarmandchilik va gastronomik qadriyatlarni asrash hamda ulardan etnoturizmni rivojlantirishda samarali foydalanish imkonini beradi.

YuNESKO e'tirofi Xorazmning "Lazgi", Ichangal'a kabi moddiy va nomoddiy meros ob'ektlarini jahon miqyosida targ'ib qilish, xorijiy sayyohlar qiziqishini oshirish, mahalliy aholi uchun yangi daromad manbalarini yaratish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, etnomadaniy merosni asrash va targ'ib qilish orqali Xorazm aholisining tarixiy xotirasi, milliy o'ziga xosligi va madaniy identifikatsiyasi yanada mustahkamlanadi.

Xulosa. Xorazm viloyatining etnomadaniy merosi etnoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lgan strategik resurs hisoblanadi. Hududning tarixiy xotirasi, milliy san'ati, gastronomik madaniyati, hunarmandchilik an'analari va qishloq turmush tarzi turistlar uchun o'ziga xos tajriba yaratish imkonini beradi.

Etnoturizmni samarali rivojlantirish uchun Xorazmning moddiy va nomoddiy merosini birlashtirgan kompleks turistik marshrutlar ishlab chiqish, mahalliy brendlarni shakllantirish va aholi ishtirokini kengaytirish zarur. Bu nafaqat turistik salohiyatni oshiradi, balki milliy madaniy qadriyatlarni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi.

Taklif va tavsiyalar. Xorazm viloyatining etnomadaniy salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida tarixiy, etnografik, gastronomik va ziyorat ob'ektlarini qamrab olgan yagona etnoturistik marshrutlarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, "Tomaduradik" patiri, Madir kulolchiligi, Kattabog' olmasi va G'ovuk anori kabi mahalliy mahsulotlarni turistik brend sifatida rivojlantirish, ularni keng targ'ib qilish muhim ahamiyatga ega. Etnoturistik hududlarda infratuzilmani yaxshilash, raqamli axborot xizmatlarini joriy etish va mahalliy aholini turistik faoliyatga jalb qilish orqali sohaning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Адабиётлар рўйхати

1. Аҳмедов И.А. Этнографик туризм ҳудуд сайёҳлик жозибадорлигини ошириш омили сифатида.// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 4/2024, iyul-avgust (№ 00072)
2. Биржаков М.Б. Введение в туризм / М.Б. Биржаков. – СПб.: Изд-во «Герда», 2007. – 192 с.
3. Моралева, Н.В. Организация этнографического и аборигенного туризма: учебное пособие – М.: Библиотека коренных народов Севера, 2008. – 43 с.
4. Шкапский О. Рассказ о Средней Азии. кн.1. М. 1900. – С. 5.
5. Гладышев и Муравьин. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740-1741 годах поручиком Гладышевым и геодезистом Муравьиным. СПб. 1851. – С.21
6. Лазги» халқаро рақс фестивалини ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 28.09.2020 йилдаги ПҚ-4843-сон ақори// <https://lex.uz/uz/docs/5020216>
7. «Тухум барак» получил статус географического указания в Узбекистане// <https://www.spot.uz/ru/2025/06/14/tuxum-barak/> 14 июня 2025, 16:57 Экономика
8. Bekmurod Ollanazarov and Nilufar Raimova. Xorazmda etno-folklor turizmini rivojlantirish: madaniy meros va barqaror taraqqiyot istiqbollari// GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 2025, vol. 3, issue 4